

Kalitning hikoyasi



15:27 / 27.01.2025 3336

Qayerdagi uy-joy bo'lsa, bilingki, unga kiradigan eshigi bor. Hatto qadimda butun boshli shahar va qal'alarning ham kirish-chiqish darvozalari bo'lgan. Kerak paytda ochilgan, boshqa paytda yopilgan. Eshigi, darvozasi bo'lgandan keyin uning qulfi va kaliti ham bo'ladi-da, to'g'rimi? Dunyoda nechta kalit borligini, ularning son-sanog'ini bilmayman-u, biroq men ular orasida eng boshqachasi, eng baxtiyoriman. Maqtanyapti demang, aslida maqtanish menga yarashmaydi. Biroq Allohning uyi – Ka'batullohning eshigi mensiz ochilmaydi-da. Ana shunaqa! Shunday ekan, dunyodagi qaysi kalit mening o'rnimda bo'lib qolishni orzu qilmaydi, deysiz?!

Bilasizmi, baxtiyorligimning yana bir sababi Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning mo'jizalariga kamina ham guvoh bo'lganman. Xo'sh, bu qanday mo'jiza edi, deysizmi? U holda men aytmoqchi bo'lgan hikoyaga yaxshilab quloq soling.

U paytda Islomga kirib, musulmon bo'lgan kishilar din dushmanlari tazyiqiga uchrab, yashirincha Madinaga ko'chib keta boshlashgan edi. Shunday kunlarning birida hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Usmon ibn Talhadan Ka'baning kalitini berib turishni so'radilar. Chunki kalit Usmonda turardi. Bundan men judayam-judayam xursand bo'lib ketdim.

Axir u kishi muborak qo'llari bilan meni ushlab, Ka'batullohning eshigini ochadilar-u xursand bo'lmaymanmi? Biroq xursandchiligim uzoqqa cho'zilmadi.

Usmon ibn Talha Allohning Rasuliga Allohning uyining kalitini bermadi. Buning ustiga Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga qo'pollik ham qildi. Kalit egasi Ibn Talha musulmon bo'lmagan, Makka mushriklaridan edi-da. O'shanda Payg'ambarimizning so'zlari yerda qolganini, ahvollarini ko'rib zor-zor yig'laganman. Egam – Usmon ibn Talhani la'natlaganman. Undan jirkanganman. Ixtiyorim uning qo'lida nima ham qila olardim deysiz?

Shunday qilib Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Ka'batullohga kira olmay, Madinaga jo'nab ketdilar. Oradan yillar o'tib musulmonlar u zot boshchiliklarida Makkani fath etishdi. Bu oliy dargoh musulmonlar qo'liga o'tdi. Oh, bu kunni men ham qanchalar orziqib kutgan edim. Axir Allohning uyi musulmonlarniki bo'lmay yana kimniki ham bo'lishi mumkin? Ana endi Payg'ambarimizga Ka'batullohning kalitini bermagan, buning ustiga qo'pollik qilgan mening sohibim ibn Talhaning holi nima kechar ekan deb o'tiribman.

Vakil kelib, Ibn Talhani hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam chaqirayotganlarini aytdi. Sezdim, kalit uchun chaqirtiryaptilar. Ibn Talha hamisha meni o'zi bilan olib yurardi. Qozoni mening orqamdan qaynardi-da. Shuning uchun u qo'rqib ketdi. Xuddi meni oxirgi marta ushlab turgandek, qo'llari titrardi. O'shanda qilgan odobsizligi uchun ich-ichidan achinardi. Ammo endi kech edi. U yerdan ko'zini uzmay meni Payg'ambarimizning muborak qo'llariga topshirdi. Yuzlariga qaray olmadi. Hamma mushriklar qatori adashganini bildi. Oh, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak qo'llarida kaminaning qanchalar yayrab ketganimni bilsangiz edi...

U kishi Ka'batullohga kirishdan oldin, uning ichini mushriklar sig'inadigan but-sanamlar, suratlardan tozalattirdilar. Shundan keyin bir necha sahoba bilan Ka'batullohga kirdilar. Ular orasida Usmon ibn Talha ham bor edi. Payg'ambarimiz namoz o'qidilar. Shundan so'ng Ka'batullohning eshigi yopildi, unga qulf tushdi. Men yana Payg'ambarimiz alayhissalom qo'llarida paydo bo'ldim. Endi meni o'zlari yaxshi ko'rgan sahobalardan biriga topshirsalar kerak deb o'tiribman. Ibn Talha esa hanuz qattiq hayajonda. O'ziga kela olmayapti. Axir Madinaga ketish oldidan bo'lgan voqeani kim ham esdan chiqarardi deysiz? Ammo unday bo'lmadi. Hammaning ko'z oldida mo'jiza yuz berdi. Hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Usmon ibn Talhani chaqirib, uning qo'liga kalitni berdilar-da: «Uni abadiylikka olinglar, uni sizga men berganim yo'q. Uni sizga Alloh berdi, uni sizdan faqat zolingina tortib olishi mumkin», dedilar...

Usmon ibn Talha yana mening sohibim bo'lib qolganiga ishonib-ishonmay yig'lab yubordi... Endi u boshqa Ibn Talha edi. Buni men bir parcha sovuq temir bo'lsam

ham sezdim. Hazrati Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam unga qanchalar marhamat ko'rsatdilar-a?! Talhaning avlodlari shu imtiyozga ko'ra bugungi kungacha meni o'zlarida saqlab, sodinlik – xodimlik qilib kelishadi.

Erkin bobo

«Hilol» jurnali 5(62) son